



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

LINGVISTIK TERMINOLOGIYADA POLISEMIYA HODISASI.

Tojiboyeva Dilorom Odiljon qizi,
Farg'ona Davlat Universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya.

Maqolada lingvisti terminologiyada polisemiya hodisasi tabiiy va muqarrar jarayon sifatida talqin qilinadi. Terminlarning ko'pma'nolililig iularning umumtil leksikasi bilan tarixiy va semantik aloqasi, shuningdek metonimiya, sinekdoka va metafora kabi semantic mexanizmlar orqali shakllanishini ko'rsatib beriladi. Polisemiyaning omonimiyadan farqlash mezonlari juda muhim sanaladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, terminologik polisemiya aksariyat hollarda kontekst oqali bartaraf etilib, muloqotda jiddiy noaniqliklarni keltirib chiqmaydi.

Kalit so'zlar: polisemiya, sinekdoka, mikroqurilma, metafora, metonimiya, metafora, kontekst, lingvistik iqtisod.

ПОЛИСЕМИЯ КАК ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ЯВЛЕНИЕ В ТЕРМИНОЛОГИИ.

Таджибаева Дилором Одилжон кизи,
самостоятельный соискатель Ферганского государственного университета.

Аннотация.

В статье полисемия в лингвистической терминологии рассматривается как естественный и неизбежный процесс. Показано, что многозначность терминов формируется на основе их исторических и семантических связей с общезыковой лексикой, а также под воздействием таких семантических механизмов, как метонимия, синекдоха и метафора. Результаты исследования свидетельствуют о том, что терминологическая полисемия в большинстве случаев нейтрализуется контекстом и не приводит к серьезным семантическим неоднозначностям в научном общении.

Ключевые слова: полисемия, синекдоха, микроструктура, метафора, метонимия, контекст, лингвистическая экономия.

THE PHENOMENON OF POLYSEMY IN LINGUISTIC TERMINOLOGY

Tojiboyeva Dilorom Odiljon qizi
independent researcher at Fergana State University.

Annotation.

The article considers polysemy in linguistics terminology as a natural and inevitable process. It demonstrates that the multiple meanings of terms are formed through their historical and semantic connections with general language vocabulary, as well as through semantic mechanisms such as metonymy synecdoche, and metaphor. The research findings indicate that terminological polysemy is in most cases neutralized by context and does not cause serious ambiguities in academic communication.

Keywords: polysemy, synecdoche, microstructure, metaphor, metonymy, context, linguistic economy.

Tilshunoslik sohasiga oid terminlar bir mikrosistema bo'lib, o'ziga xos semantik xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Buning uchun tilshunoslik terminlarining semantik tuzilishida umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, terminlarni muayyan semantik guruhlariga birlashtirish va shu asosida lisoniy tushunchalarni nomlash, shuningdek lug'atlarda berish

jarayonlarida o'ziga xos ahamiyatga egaligini ko'rstadi. Tilshunoslikda sistematik-struktur yo'nalishi asoschisi Ferdinand de Sossyur quyidagi fikri orqali har bir butunlik -sistema bo'linuvchanlik xususiyatiga ega ekanligini ta'kidlaydi: "Til yaxlit bir butunlikni tashkil qiluvchi elementlarning tizimi bo'lib, uni tashkil qiluvchi uning tarkibidagi har bir so'zning ma'nosi bir vaqtning o'zida shu sistemani tashkil qilayotgan boshqa elementlarning borligiga asoslanadi" [7; 26-b.]. Har bir tizimda esa quyidagilar aks etadi:

Ko'plab elementlardan iborat butunlik.

Yaxlitlikni tashkil etuvchi elementlar.

Elementlar o'rtasidagi barqaror munosabatlar.

Shuni e'tirof etishimiz joizki, terminologik sistemadagi terminlarning salmoqli qismi monosemantik hisoblanadi. Terminning tabiati ham ayni shuni talab qiladi. Turli terminologik sistemalarda qo'llanayotgan quyidagi terminlar shu jihati bilan xarakterlanadi. Terminlarning bir ma'noli bo'lishi, ekspressivlik va emotsionallikdan holi bo'lishi bilan umumiste'moldagi so'zlardan tubdan farqlanadi. O'zbek tilining barcha leksik resurslarida bo'lgani kabi o'ziga xos boyish usullari bor. Ma'lumki, hozirgi o'zbek tilda so'z ma'nosining o'zgarishi, ko'chishi, polismentik aloqada ba'zi ma'nolarning yo'qolishi orqali so'zning hosil bo'lishi semantik yoki leksik-semantik so'z yasash usuli deyiladi. Lottening ta'kidlashicha semantik usulda so'z yasash eng dastlabki usullardan hisoblanadi [4; 43-b]. Uning fikricha mavjud so'zga qo'shimcha ma'no yoki ma'no o'ttenkalarini berishga asoslanadi. Semantik maydon mustaqil lingvistik tizim sifatida murakkab ichki qatlamlarga ega bo'lib, uning asosi turli paradigmatic birliklar majmuasi orqali shakllanadi. Paradigmatik munosabatlar muqobil yo'nalishlar bilan cheklanmaydi va ular ma'lum semantik komponentlarga ega bo'lgan leksik birliklarning turlicha sinflari orqali namoyon bo'lishi mumkin. Shu jihatdan semantik munosabatlarning tizimli emasligi semantik maydonning eng asosiy xususiyatlaridan biridir. Bu holat ayniqsa lingvistik terminologiya tizimida yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, fonetika, morfologiya, sintaksis, semasiologiya, pragmatolingvistika kabi sohalar terminlari bir maydonda kesishib, umumiy paradigmatic aloqalarni vujudga keltiradi. Umumadabiy leksikaning terminlashuvida omonimlik xususiyat juda ko'p uchraydi va ba'zan ma'no jihatidan yaqin kelish holatlarini quyidagi misollar orqali ko'rishimiz mumkin: ot, sifat va h.k. Bu usuldagi terminologik leksikaning o'zlashtirilishi subyektiv omil bo'lib, u nutqdagi ekspressivliklikni qondirishdga qaratilgandir. Terminologiyaga ko'ra, muayyan sohaning leksikasini tarkibida o'zining asl, nominative-denotativ vazifasi istifoda etilishi aniqlangan. Ba'zi bir terminlarning umumadabiy leksikaga kirib kelishi, turli manbalarda ommabopligi, qo'llanuvchaligi ularning adabiy til tomonidan o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, nutqda yuzaga keladigan turfa kontekstual semalar, ma'no o'ttenkalari, ko'chma qo'llanishlar va boshqa semantik modifikatsiyalar aynan shu nutqiy realizatsiyalar asosida so'zning doimiy (lisoniy) ma'nosini aniqroq belgilashga yordam beradi. Lug'at tuzishda esa hosila ma'nolarni haddan tashqari ko'paytirib, ularni asosiy ma'no qatoriga kiritib yubormaslik uchun semantik tuzilmani chuqur tahlil qilish talab etiladi.

Asosiy va hosila ma'nolarning ajratilishi, ularning o'zaro farqlanishi, polisemantik birlikning ma'lum bir ma'nosining nutqiy kontekstda aktualizatsiya qilinishi, shu ma'noning muayyan sohada termin sifatida mustahkamlanishi sememalarning tahlili hamda ular orasidagi sema munosabatlarining tizimli ko'rinishda ochib berilishi orqali aniqlanadi. Lingvistika sohasiga oid terminlarning signifikativ ma'nosi orqali ularning nafaqat til sistemasidagi o'rni balki qaysi leksik-semantik guruhga mansubligi ham aniqlanadi. Jumladan, "tilshunos" ma'nosini anglatuvchi 'lingvist' termini signifikativ ma'nosi fonolog, morfolog, sintaksist, semasiologiya kabi muayyan tilshunoslik bo'limiga ixtisoslashgan terminlar bilan bir guruhga mansubdir. Aynan leksik-semantik munosabatlar lingvistik jarayon va birliklarni mazmuniy

jihatdan bir guruhga to'plash imkonini beradi. Lingvistik terminlarda uchraydigan polisemiya holati ideal terminologik tizim uchun nomaqbul hisoblanasada, Bursina uni tabiiy jarayon sifatida izohlaydi [1; 26-b.]. Tadqiqotchining fikricha, polisemiya-terminlarning oddiy leksik birliklardan maxsus terminlar turkumiga o'tishi, shuningdek, turli terminologik tizimlar o'rtasida elementlarning translokatsiyalanishi bilan bog'liq bo'lgan lingvistik jarayon sifatida izohlaydi. Leychik esa terminologik tizimdagi polisemantik holat umumiy xususiyat sifatida talqin qilib, terminlarning tizimlararo harakatchaligidan yuzaga kelganligini sabab qilib ko'rsatadi. Bundan ko'rinib turibdiki, polisemantik holat terminologiya uchun tabiiy holatdir. Lingvistik terminologiyada polisemiyaning boshqarish terminologlar uchun leksikografik resurslarga qaraganda nisbatan soddaro jarayon hisoblanadi.

Maria Pei tomonidan tuzilgan lingvistik lug'at tarkibida jami 1877 ta termin berilgan bo'lib, ularning 2189 ta ma'nolari berilgan [6; B.283.]. Chunonchi, lug'at tarkibidagi polisemiya holati tizim ichidagi tubdan farq qilmaydigan ma'nolarni ko'rishimiz mumkin. Ushbu ko'rsatkich terminologik resurslarda polisemiyaning mavjudligini tasdiqlaydi. Polisemiyaning terminologik resurslarda nisbatan kam uchrashiga terminologlar e'tiborni ixtisoslashgan ma'noga qaratganlaridir. Shuni e'tiborga olish lozimki, terminologik tizimdagi ma'no siljish holatlariga polisemiya deb qarash noo'rindir. Jumladan fe'l so'z turkumiga morfologik lug'atlarda ish harakatni anglatuvchi so'zlar deb qaralsa, sintaksisda esa kesim sifatida talqin etiladi. Buni terminologik tizim ichidagi polisemantik holat deb qarashimiz mumkin. Terminlar bir soha tushunchalarini ham, unga yaqin bo'lgan boshqa sohalar tushunchalarini ham nomlashda ishlatilsa, u polisemiya ega bo'lishi mumkin. Bunday tizimlararo aloqalar nafaqat bitta terminning noaniqligini, balki omonimiyani ham keltirib chiqaradi va ularni fanlararo kontekstda ko'rib chiqish mumkin.

M. N. Volodina fikricha, terminning umumlashtiruvchi xususiyati uning kognitiv-ta'rifiy ma'nosida namoyon bo'ladi: termin maxsus terminologiyaga tegishli ma'lumotlarni "tashuvchi va saqlovchi" sifatida xizmat qiladi [9; b.148.].

O'zbek tilida termin turli terminologik tizimlarda qo'llanishi yoki bir so'z umumiste'mol va terminologik qatlamlarda uchrash ko'p kuzatiladi. Bu tilshunoslikka oid bo'lgan iqtisod qonuniyati bilan bog'liqdir. Tilimizda mavjud birliklar orqali bir necha tushunchani ifodalash tilimizni "so'zga boyib ketish" dan asraydi. Mana shu orqali tilimizda polisemiya va monosemiya holatlari yuzaga keladi. Shuni qayd etish joizki, har qanday tildagi birlik dastavval bir ma'nolilik xususiyatiga ega bo'ladi. Ushbu til birligining ma'nosiga yaqin tushuncha yuzaga kelgach ko'p ma'no bo'lga aylana boshlaydi.

Polisemiyaning terminologik resurslarda nisbatan kam uchrashining bir necha sabablari mavjud. Birinchidan, terminologlar e'tiborini asosan ixtisoslashgan ma'nolarga qaratadilar, boshqa ma'nolar esa cheklangan darajada hisobga olinadi. Terminologlar soha bo'yicha korpuslar tuzadilar, bunda ko'plab leksik birliklar bitta yoki oz sonli ma'noga ega bo'ladi. Hatto leksik birliklar bir nechta soha bo'yicha ma'nolarga ega bo'lsa ham, ularning soni umumiy til lug'atlaridagi ma'nolarga nisbatan sezilarli darajada kamayadi.

Ko'p ma'noli so'zlarda ma'no miqdori turlicha bo'lishi mumkin. Ikki yoki undan ortiq ma'noga ega bolgan polisemantik leksemda hosil bo'lgan ma'nolar uchun asosiy ma'no doim ham umumiy bo'lavermaydi. O'zbek tilidagi terminologik tizimlarni o'rganishga bag'ishlangan taqiqotlarda qayd etilishicha, aksariyat terminologik tizimlarda mavjud terminlarning asosiy qismi monosemantik hisoblanadi. Shu bilan birga, bu polisemantik terminlar mavjud eams degan xulosaga olib kelmaydi. Shu bois leksemlarda bu hodisa o'zgacha tarzda namoyon bo'ladi. Bunda asosiy omil — terminga qo'yiladigan talab bilan bog'liq: ya'ni terminlarda zarur deb hisoblangan aniqlik xususiyati ularning ma'no doirasini umumiy leksemlarga nisbatan tor qilishi mumkin. Shu jihatdan, turli sohalarida ishlatiladigan

terminlarning ma'no doirasini maxsus o'rganish ilmiy va amaliy (ayniqsa, leksikografiya) nuqtai nazardan muhim ahamiyatga ega.

Vinogradov fikricha real ilmiy matnlarda polisemiya inson uchun jiddiy muammo tug'dirmaydi, chunki terminning ma'nosi kontekstda aniqlanadi[8;b.83.]. Biroq terminning polisemiya holati avtomatik tarjima va sun'iy intellekt tizimlari uchun qiyinchilik tug'diradi. Bu holat yana bir bor terminologik birliklarning qat'iy va barqaror ta'rifga ega bo'lishi zarurligini yana bir bor ko'rsatadi.

Tilning lug'at boyligi so'zlar soni bilan emas, leksik birliklarning semantik tuzilishi bilan ham o'lchanadi. Inson tafakkuri rivojlanishi va dunyoni turli jihatlarini o'rganish natijasida bitta leksema bir necha ma'noni ifodalay boshlaydi, bu tilning tabiiy sinergetik jarayoni-polisemiyaning namoyon qiladi. O'zbek tili bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatadiki umumiy terminlar miqdorining 58foizini tashkil etadi. Polisemiya leksik ma'nolarni hosil bo'lishi va ma'no ko'chishi natijasida yuzaga keladi, bunda o'xshash, xoslash materialga ko'ra nomlash nisbat berish kabi tamoyillar terminologik ma'noni kengayishida asosiy rol o'ynaydi.

Lingvistik terminologiyada polisemiya va omonimiya o'rtasidagi chegarani aniqlash eng muhim masalalardan biridir. Zamonaviy tadqiqotlarda bu ikki hodisa qat'iy qarama-qarshi tushuncha sifatida emas, balki uzluksiz semantik kontinuum sifatida qaraladi. Ya'ni, ayrim terminlar dastlab polisemnatik birlik sifatida shakllanib, vaqt o'tishi bilan mustaqil terminga aylanishi mumkin..

Lingvistik terminologiyada polisemiya terminlarining lug'aviy ifodalanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ayniqsa terminografiya jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Polisemiya sharoitida termin ma'nolari aniq chegaralash ko'pincha qiyinchilik tug'diradi. Korpus lingvistikasi vakillari ta'kidlaganidek, "word sense" va "word meaning" tushunchalarini qat'iy ro'yhat shaklini talqin qilish real nutq materiallari bilan to'liq mos kelmaydi. Shunga qaramay, an'anaviy lug'atchilik amaliyotida ma'nolar ko'pincha mustaqil va yopiq birliklar sifatida tasvirlanadi. Mazkur holat ikki tilli terminologik lug'atlarda ancha murakkablashadi. Turli tillardagi terminologik ekvivalentlar o'rtasida to'liq semantik moslik har doim ham mavjud bo'lmaydi, natijada qisman mos keluvchi polisemiya holati kuzatiladi. Bunday vaziyatda bir tildagi terminning barcha ma'no komponentlari boshqa termin orqali ifodalanmasligi mumkin. Shu sababli terminografiyada ma'nolarni oddiy sanab o'tish emas, balki ularni real qo'llash asosida, ya'ni korpuslarda aniqlangan semantik guruhlar yordamida guruhlash maqsadga muvofiq bo'lar edi. Lingvistik terminologiya nuqtai nazaridan, polisemiya terminologik tizimning kamchiligi emas, balki fanlararo aloqalar va ilmiy tafakkur rivoji bilan bog'liq tabiiy hodisadir. Demak, terminologik lug'atlar terminning ma'no kengayishini, kontekstual faolligini va tillararo semantik nomuvofiqliklarni hisobga olgan holda tuzilishi zarur. Bu esa terminologiya va terminografiyada kognitiv va korpusga asoslangan yondashuvlarning ahamiyatini oshiradi.

So'zlar va ularning ma'nolari o'rtasidagi munosabatlar asosida leksikaning ifoda va mazmun qatlamlarida turli xil tuzilmalar shakllanadi. Ana shu tuzilmalardan biri lug'aviy mazmuniy mikorqurilma hisoblanib, u asosan lug'aviy ko'pma'nolilik asosida yuzaga keladi. O'zbek lingvistik terminologiyasiga ulkan hissa qo'shgan olimlardan biri Ixtiyor Ermatov polisemiyaning so'z hayotining dinamik xususiyatlari bilan bog'laydi[3;b.75.]. So'zning dinamikligi deganda uning turli ijtimoiy sharoitlarda, turli muloqot maqsadlarida qo'llanishi va shu jarayonda yangi nutqiy imkoniyatlarni tashkil etishi tushuniladi. Buning natijasida so'zlarning asosiy, ya'ni nominative ma'nolariga qo'shimcha ravishda ko'chma ma'nolarni ham hosil qilish imkoniyati bilan izohlanadi. Ko'pma'nolilik natijasida lug'aviy sathga xos shakl va mazmun mutanosibligining paradigmatic tizimi shakllanadi. Ko'pma'nolilik paradigmaticasi va uning tarkibiy tuzilmasi so'zning semantik doirasida mavjud bo'lgan bir

necha mustaqil ma'nolar sememalardan tashkil topadi. Paradigmatik qatorni tashkil etuvchi ushbu ma'nolarni har biri ya'ni so'zning alohida nominative qiymatiga ega bo'lib, ular leksik birliklarning mustaqil lug'aviy-mazmuniy variantlari sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur lug'aviy-mazmuniy variantlar, ya'ni integral sema asosida bog'lanadi. Shu bilan birga polisemantik leksemaning har bir lug'aviy-mazmuniy variant boshqalaridan o'zi xos farqlovchi jihatlari bilan farqlanib turadi. Masalan, bosh leksemasining har bir lug'aviy mazmuniy variant boshqalaridan o'ziga xos farqlovchi belgi bilan ajralib turadi. Jumladan, bosh leksemasining asosiy ma'nosi "inson yoki hayvon tanasining yuqori qismi"ni bildirib, shu ma'no asosida terminologik tizimda ushbu so'zning boshqa ma'nolari shakllangan va termin sifatida qo'llana boshladi: bosh kelishik, bosh bo'lak, bosh harf.

Shu asosida aytish mumkinki, lug'aviy ko'p ma'nolilikda polisemantik polisemiya yuzaga keltiruvchi mahsuldor omillardan yana biri metafora bo'lib, terminologik tizimda yangi tushunchalarni atovchi terminlarni yuzaga keltiradi. Tilshunos Mukarramov ham terminlar hosil bo'lishida metaforaning o'rni beqiyos degan fikrni bildirib, bo'g'in, to'ldiruvchi, gap, ega, aniqlovchi, kabi termin shu usulda hosil bo'lganini ta'kidlaydi [5;b.48.]. Shuni ta'kidlash lozimki, lingvistik terminologiyaning salmoqli qismi shu usulda hosil qilingan so'z tuzilmasida birdan ortiq lug'aviy-mazmun variant mavjud bo'ladi. Ushbu variantlar o'zaro nimanidir ifodalashi yoki nimagadir nisbatan qo'llanishi bilan farqlansada shaklan va talaffuz jihatidan aynan bir birlik sifatida saqlanadi. Bu holat ularning lug'aviy omonimlardan farqlashga imkon beradi. Chunki omonimiyada shakl jihatdan bir xil bo'lgan birliklar mazmun jihatdan mutlaqo boshqa-boshqa so'zlarni tashkil etadi. Polisemiya esa bitta so'z doirasidagi mazmuniy kengayish bilan bog'liq hodisadir. Shu bois lug'aviy ko'p ma'nolilikni izohlashda mikroqurilma termini qo'llaniladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, polisemiya aksariyat hollarda kontekst orqali bartaraf etiladi va ilmiy muloqotda jiddiy noaniqliklar keltirib chiqarmaydi. Polisemiya lug'aviy ko'p ma'nolilik va mikroqurilma tuzilmalari bilan bog'liq bo'lib, har bir ma'no integral sema asosida mustaqil lug'aviy-mazmuniy variant sifatida namoyon bo'ladi. Omonimiya esa shakl jihatdan bir xil bo'lsa-da, mazmun jihatdan butunlay boshqa birliklarni tashkil etadi. Shu bois, lingvistik terminologiyada polisemiya hodisasi fanlararo aloqalar va ilmiy tafakkur rivoji bilan bog'liq tabiiy jarayon sifatida baholanishi lozim.

Foydalanilga adabiyotlar ro'yhati.

1. Бурсина Е. В. Полисемия терминов в современном русском языке. — М.: ФЛИНТА; Наука, 2014. — 66 с.
2. Ermatov I. Terminologiyada leksik-semantik hodisalar. — Toshkent, 2023. — 19 b.
3. Лейчик В. М. Терминоведение: предмет, методы, структура. — М.: ЛКИ, 2006. — 68 с.
4. Лотте Д. С. Как работать над терминологией. — М.: Наука, 1968. — С. 37–38.
5. Mukarramov M. Terminlar ta'riflari va talablar. — Toshkent: [nashriyot ko'rsatilmagan], 2002. — 7 b.
6. Pei M. A. The Story of Language. — New York: Doubleday, 1965. — 266 p.
7. Соссюр Ф. де. Курс общей лингвистики: лекции / пер. с фр. — М.: Editorial URSS, 2004. — 120 с.
8. Виноградов В. В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. — М.; Л.: Гос. учеб.-пед. изд-во, 1947. — 3-е изд., испр. — М.: Высшая школа, 1986. — 783 с.